

**FAVQULODDA VAZIYATLARDA TASHKILOTLAR HAYOT  
FAOLIYATI BARQARORLIGINI TA’MINLASH UCHUN XAVF-XATAR  
DARAJASINI ANIQLASH USULLARI**

**МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ УРОВНЯ РИСКА И ОПАСНОСТИ ДЛЯ  
ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ЖИЗНЕНДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
ОРГАНИЗАЦИЙ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ**

**METHODS FOR DETERMINING THE LEVEL OF RISK AND  
DANGER TO ENSURE THE STABILITY OF LIFE  
EMERGENCY ORGANIZATIONS**

**dotsent S.A. Ergashev**

*(FVV Fuqaro muhofazasi instituti o‘qituvchisi)*

**доцент С.А. Эргашев**

*(преподаватель Института гражданской защиты МЧС)*

**Associate Professor S.A. Ergashev**

*(lecturer at the Institute of Civil Protection of the Ministry of Emergencies)*

**Annotatsiya:** Dunyoda texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlarning sodir bo‘lish va o‘sish dinamikasi ortib borayotganligi sababli favqulodda vaziyatlarning oldini olish muammosi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning yechimi davlat organlari va jamoat tashkilotlarining sa’y-harakatlarini fan, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari asosida tizimli ravishda birlashtirish, shuningdek, bu sohadagi mahalliy va xorijiy tajribani umumlashtirish orqali muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada muallif tomonidan favqulodda vaziyatlar sharoitida tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta’minalash uchun xavf-hatar darajasini aniqlash usullari, xavfni boshqarish ya’ni uni kamaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** xavf-hatar, barqarorlik, tashkilotlar hayot faoliyati, favqulodda vaziyat, usul, boshqarish, muammo, xavfsizlik.

**Аннотация:** В связи с возрастающей динамикой возникновения и роста чрезвычайных ситуаций техногенного характера в мире проблема предупреждения чрезвычайных ситуаций приобретает все большую актуальность. Ее решение может быть успешным путем системного объединения усилий государственных органов и общественных организаций на основе современных достижений науки и техники, а также обобщения отечественного и зарубежного опыта в этой области. В данной статье автором представлены методы определения уровня риска, а также предложения и рекомендации по управлению риском, то есть его снижению для обеспечения устойчивости жизнедеятельности организаций в условиях чрезвычайных ситуаций.

**Ключевые слова:** риск и опасность, устойчивость, жизнедеятельность организаций, чрезвычайная ситуация, метод, управление, проблема, безопасность.

**Annotation:** Due to the growing dynamics of the emergence and growth of man-made emergencies in the world, the problem of emergency prevention is becoming more and more urgent. Its solution can be successful by systematically combining the efforts of state bodies and public organizations based on modern achievements of science, science and technology, as well as generalizing domestic and foreign experience in this area. In this article, the author offers methods for determining the level of risk to ensure the stability of the life of organizations in emergency situations, as well as recommendations for risk management and their reduction.

**Key words:** risk and danger, stability, organizational life, emergency, method, management, problem, security.

**Kirish.** Xozirgi kunda favqulodda vaziyatlar oqibatida kelib chiqadigan muqarrar zararlarni kamaytirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan harakatlarni mujassamlashtirish ustuvor davlat vazifalari qatoriga kiritilmoqda. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatlari hal etilishi mamlakat iqtisodiyotining ekologik barqaror rivojlanish istiqbollari, aholining farovonligi va salomatligini yuksaltirishga bevosita bog‘liq.

Ilm-fan va texnika jadal rivojlanayotgan zamonda texnogen va tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar sonining ko‘payishi hamda ular bilan bog‘liq zarar tufayli faqat favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan sa’y-harakatlar samarasiz ekanligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni himoya qilish sohasidagi ustuvor vazifalar sifatida favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish va oldini olish masalalari, shu jumladan tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini oshirish vazifasi xozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Favqulodda vaziyatlarning oldini olishning muhim maqsadli tarkibiy qismi ularning oldini olish bilan bir qatorda oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo‘lib, bu ehtimoliy yo‘qotishlar va zararlarni kamaytirish hamda favqulodda vaziyatlar ko‘lamini qisqartirishni o‘z ichiga oladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgust kunidan “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda FVDTning asosiy vazifalaridan biri favqulodda vaziyatlarning oldini olish va favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar hayot faoliyatining barqarorligini oshirishga qaratilgan maqsadli va ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirish ekanligi belgilangan. Ushbu qonun asosida favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar hayot faoliyatining barqarorligi bo‘yicha birinchi navbatda insonlar hayotini asrash, ya’ni favqulodda vaziyatlarda aholi va hududlarni himoya qilish asosiy vazifa qilib belgilangan.

Tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta’minalash, favqulodda vaziyatlarning salbiy oqibatlarini tahlil qilish va ularni tasniflashga ko‘plab olimlarning ishlari bag‘ishlangan, ular orasidan Volkov A.A., Pixterev D.V., Kopeychenko Y.V., Ternyuk N.E., Ignateva M.N., Lagunova A.I., Paxomov V.P., Radayev N.N. va boshqalarning olib borgan tadqiqotlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Ushbu mualliflarning ilmiy ishlarida tomonidan favqulodda vaziyatlar sharoitida tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta’minalash uchun xavf-hatar darajasini aniqlash usullari, xavfni boshqarish ya’ni uni kamaytirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan, bu muammoning yechimlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Favqulodda vaziyatlar sharoitida aholi va hududlarning xavfsizligi ularga taxdid solayotgan turli turdagilari xavflarni boshqarish orqali ta’milanadi. Texnogen xavfsizlik turlaridan biri sanoat xavfsizligidir. Uni ta’minalash choralarini favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy obektlar faoliyatining

barqarorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlar sharoitida xavf va xavfsizlikni boshqarish sohasida ularni tartibga solish usullarini qo'llash nihoyatda muhimdir. Bularga quyidagilar kiradi: meyoriy-huquqiy bazani yaratish, aholi va hududlarni himoya qilish hamda favqulodda vaziyatlar sohasida ilmiy-texnik yangiliklarni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini yumshatishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari bu davlat ijro etuvchi hokimiyat organlari va uning subektlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va FVDT tashkiliy tuzilmalari tomonidan oldindan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular yuzaga kelgan taqdirda ularning ko'lamenti kamaytirishga qaratilgan tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Shuningdek, bu atrof tabiiy muhit va tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligi holatini kuzatish va nazorat qilishni tashkil etish, favqulodda vaziyatlar manbalari paydo bo'lishini bashorat qilish va oldini olish, shuningdek, barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zarur tadbirlarni tashkil etishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, muhandislik-texnik, sanitariya-epidemiologik va maxsus chora-tadbirlar majmuyidir.

Dunyo mamlakatlarida olib borilgan kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi yillargacha ko'pchilik davlatlarda asosiy e'tibor favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilmoqdi. Biroq, tabiiy ofatlar, avariylar va halokatlardan ko'rilgan zarar miqdorining o'sishi bu bu tadbirlar tobora samarasiz ekanligini ko'rsatmoqda. Favqulodda vaziyatlar hamda extimoliy xavflarni oldini olish, ularni boshqara olish xozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri va bu ko'p hollarda samaraliroq va tejamliroq ekanligi ayon bo'lib bormoqda. Masalan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va xavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida avtohalokatlar va texnogen avariylar soni so'ngi yillarda 7-10 baravarga kamayish holati kuzatilgan.

Favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta'minlash, ishonchlik, xavfsizlik muammolarini hal qilish va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun barqarorlik, xavf va xavfsizlik tushunchalaridan foydalanish kerak bo'ladi. Ular texnologik jarayonlarning barqarorlik darajasini va tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini belgilaydi. Favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini boshqarish juda muhimdir. Barqarorlik tushunchasi tashkilotning doimiy faoliyat yuritishga tayyorgarligi va qobiliyatini tavsiflash uchun, xavf tushunchasi esa hayot faoliyatini ta'minlash va favqulodda vaziyatlarini oldini olish muammolarini baholash uchun ishlatiladi.

Biroq, barqarorlik, xavfsizlik, xavf tushunchalar mohiyatan bir hil - texnologik jarayonlarning barqarorlik darajasini, tarmoqlar va hududlarning hayot faoliyatini anglatadi. Ular o'rtasidagi farq shundaki, barqarorlik - bu obektiv tabiiy-ilmiy va texnik tavsif, xavfsizlik va xavf esa ijtimoiy-subektiv toifadir.

Barqarorlik uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan barcha tizimlarning fundamental sifati bo'lib, ularning tuzilishi, holati, ish parametrlari kabi xossalari

noqulay tashqi sharoitlarda, ya’ni favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda ularning ta’sir etuvchi omillari ta’sirida ruxsat etilgan chegarada saqlab qolish qobiliyatini belgilaydi. Barqarorlik ikki turga bo‘linadi - statik va dinamik. Barqarorlikning matematik nazariyasi potentsial xavfli texnologik jarayonlarni tartibga solish va barqarorlashtirish, avariya avtomatikasini loyihalash, xavfli hodisalarini bashorat qilish muammolarini hal qilish uchun asosdir.

Xavf - bu ma’lum bir xavfli hodisaning ehtimolligi va oqibatlarining o‘zaro ta’siridir. Binobarin, xatar xavfining eng yaqqol ko‘rsatkichi hisoblanadi. Xavf tushunchasi har doim ikkita elementni o‘z ichiga oladi: xavfli hodisa sodir bo‘lishining ehtimoli va bu hodisaning oqibati. Shuni aytish kerakki, xatar, aslida, xavf o‘lchovidir. “Xavf” tushunchasini qo‘llash xavfni o‘lchanadigan kategoriyalar qatoriga o‘tkazish imkonini beradi. Xavf - biror narsaning kimgadir yoki nimagadir zarar yetkazish xossasidir. Ko‘pincha “xavf darajasi” tushunchasidan foydalilaniladi, bu aslida “xavf” tushunchasidan farq qilmaydi, lekin bu faqat o‘lchanadigan qiymat haqida ekanligini ta’kidlaydi.

Favqulodda vaziyatlar xavfi - bu tegishli ko‘rsatkichlar va favqulodda vaziyatlar oqibatlari bilan belgilanadigan vaziyatlar ehtimolidir.

Ko‘pgina davlatlarda tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta’minalash muammolariga “texnokratik yondashuv”, ya’ni murakkab muammoni hal qilish uchun uni oddiylashtrishga, qisqartirishga intilish tarzida yondashilgan. Bunday yondashuvda favqulodda vaziyatlarda barqarorlikni ta’minalash chora-tadbirlarining samaradorligini baholashda yaxlitlik va tizimlilik yo‘qoladi. Bu esa, asosan, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va aholini ularni zararlovchi omillardan himoya qilishga emas, balki faqat favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tor doiradagi tadqiqot yo‘nalishlarining shakllanishiga olib keladi. Bundan tashqari, turli tamoyillar va standartlar asosida qurilgan tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligini ta’minalashning tor yo‘nalishlarining keyingi texnik va tashkiliy xarakterdagи jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi va natijada o‘zini oqlamaydigan katta qiyinchiliklarga olib keladi

Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik - bu aholi, tashkilotlar va atrof-muhitning favqulodda vaziyatlardagi xavflardan himoyalangan holatidir.

Barqarorlikni boshqarish deganda muayyan vaziyat va qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq ravishda barqarorlik darajasini oshirish yoki kamaytirish tushuniladi. Amaliy hisob-kitoblar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, haddan tashqari chidamlilikni ta’qib qilish vayronkor, ba’zi hollarda esa halokatli bo‘lishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlar manbalarining xilma-xilligi, ularga qarshi kurashish uchun ko‘plab chora-tadbirlar hamda vositalarni talab etadi, masalan, barqarorlik, xavfsizlik hamda xavfni boshqarishning avtomatlashtirish darajasini oshirish. Bunday avtomatlashtirishning ikkita an’anaviy yo‘nalishi mavjud:

a) avariya qarshi boshqarish, masalan, texnologik jarayonlarni barqarorlashtirish uchun va avariya qarshi avtomatlashtirilgan tizimlarni ishga tushirish;

b) turli darajadagi boshqaruv organlarining axborot ta'minoti, ya'ni axborot texnologiyalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ish o'rirlari, ekspert boshqaruv tizimlari kabi.

Favqulodda vaziyatlarni oldini olish - favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish sabablarinini aniqlash, uning taxdid soluvchi xavf darajasini baholash, ya'ni uning ehtimoliy manbalarini aniqlashni va ularning xavfini aniqlashni o'z ichiga oladi. Xavfini tahlil qilish va baholash meyoriy-texnik hujjatiga muvofiq amalgam shirilishi talab etiladi. Umuman olganda, xavfni boshqarish quyidagilarni o'z ichiga oladi: xavfni aniqlash, uni baholash va prognoz qilish, xavf darajasini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Aholi va hududlar uchun favqulodda vaziyatlar xavfini tahlil qilish turli xil tushunchalar va usullardan foydalanishga asoslangan bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Favqulodda vaziyatlarda tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligi va xavfsizligi, xavf darajasini o'rganish, aholining hayotini, sog'lig'ini ta'minlash masalalari nazorat qilinadigan darajada bo'lishi kerak. So'nggi vaqtarda favqulodda vaziyatlarning tashkilotlar hayot faoliyati barqarorligiga ta'sirini ko'rib chiqish xavf-xatarni o'rganishga va texnogen hamda tabiiy tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish muammolarini hal qilishda barqarorlik, xavfsizlik va xavf toifalarini kompleks ko'rib chiqishga asoslanadi. Boshqaruv vazifalarida barqarorlik, xavfsizlik va xavfni boshqariladigan parametrlar, ularning moddiy tashuvchilarini esa boshqaruv obektlari sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Акимов, В.А. Безопасность жизнедеятельности. Безопасность в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера: учебное пособие/ В.А. Акимов, Ю.Л. Воробьёв, М.П. Фалеев и др. – М.: Высшая школа, 2007.

2. Маstryukov, B.C. Безопасность в ЧС/ Б.С. Маstryukov. – М.: Изд. центр Академия, 2003.

3. Стратегические риски России: оценка и прогноз. Монография/ под ред. Ю.Л. Воробьёва, 2005.

4. Безопасность в ЧС / под ред. Н.К. Шишкина. - М.: ГУУ, 2000.

5. Безопасность в ЧС. Термины и определения основных понятий ( ГОСТ Р 22.0.02-94 и ГОСТ 22.9.05.95). – М.: Госстандарт, 1994.

6. Фалеев, М.И. Гражданская оборона и предупреждение ЧС: метод. пособие.- М.: Институт риска и безопасности, 2001.

7. Денисов, В.В. Безопасность жизнедеятельности. Защита населения и территории при ЧС: учеб. пособие В.В. Денисов – М.: Издательский центр «Март», 2007.

8. Биненко, В.Н. Чрезвычайная ситуация в современном мире и проблемы безопасности жизнедеятельности / В.Н. Биненко и др. СПб: СПб ГПУ, изд-во «Фокус», 2004.